

MUHAMMAD YUSUF ADABIY MEROSIDA MILLIY XARAKTER XUSUSIYATLARI

Pazliddinov Sherzodbek Qurbonovich

Namangan viloyati Davlatobod tumani MMTBga qarashli

64-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Ona tili va adabiyot fanlar metodbirlashma rahbari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Muhammad Yusufning adabiy merosi va milliy xarakter yaratish mahorati bo‘yicha o‘ziga xos ijodkor ekanligi, milliy xarakter xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: adabiy meros, o‘ziga xoslik, shoir mahorati, so‘z qudrati, qobiliyat, maqsad, xalq, xarakter xususiyatlari.

Аннотация: В данной статье говорится о том, что Мухаммад Юсуф является уникальным творцом по своему литературному наследию и мастерству создания национального характера, а также особенностей национального характера.

Ключевые слова: литературное наследие, своеобразие, мастерство поэта, сила слова, способности, предназначение, люди, черты характера.

Abstract: This article talks about the fact that Muhammad Yusuf is a unique creator in terms of his literary heritage and the skill of creating a national character, as well as the characteristics of the national character.

Key words: Literary heritage, originality, poet's skill, power of words, ability, purpose, people, character traits.

KIRISH

Muhammad Yusuf xalq ardoqlagan, insonlar qalbidagi holat va vaziyatlarni o‘z she‘rlarida aks ettirib bera olishi orqali xalqimiz tomonidan nazarga tushgan ijodkorlardan biri sifatida e‘tirof etilgan shoir hisoblanadi. Har bir shoir yoki yozuvchi borki, doimo she‘rlari va asarlarida xalq dardini yoritib berishga harakat qiladilar. Adiblar ham hammamiz qatori qancha umr ko‘rishlarini oldinda bilmasalarda, lekin qancha hayot kechirmasalar, har qanday holatda ham o‘zlari tomonidan yozilgan ijod namunalarini xalqimizga adabiy meros sifatida qoldirib ketadilar. Shoir tomonidan yozilgan ayrim she‘rlar esa milliy xarakter xususiyatlariga ega bo‘lganligi bilan faqrlanib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muhammad Yusuf qisqa umr ko‘rgan bo‘lsada vatandoshlarimiz uchun quyidagi “Tanish teraklar”, “Bulbulga bir gapim bor”, “Iltijo”, “Uyqudagi qiz”, “Halima enam allalari”, “Ishq kemasi”, “Ko‘glimda bir yor”, “Bevafo ko‘p ekan”, “Yolg‘onchi yor”,

“Erka kiyik”, “Osmonimga olib ketaman” kabi she’riy to‘plamlar hamda vafotidan keyin nashr etilgan saylanmalaridan iborat adabiy meros qoldirib mamalakatimiz tarixidan munosib o‘rin egallagan ijodkorlarimizdan biri hisoblanadi. Mazkur kitoblarga kirgan she’rlarida Muhammad Yusufga mansub bo‘lgan avlodning eng oliyjanob va yuksak insoniy fazilatlari bilan birga yoshlik sururi, ishq va muhabbatning nafis navolari, o‘zbekona, sodda, ayni paytda ezgu, bokira va betakror tuyg‘u hamda kechinmalari o‘zining yorqin ifodasini topgan. So‘zning badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish, musiqiy ravonlik, tuyg‘ular tiniqligi, samimiylik va mayinlik, ruhiyat manzaralarini lo‘nda va yakdil ifodalay bilish Muhammad Yusuf she’riy uslubining yetakchi xususiyatlaridir.[1]

NATIJALAR

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf milliy xarakter yaratish borasida ham hech qaysi adibga qiyoslanmaydigan darajada mahorat sohibi bo‘lgan. Shoirning ayrim she’rlarida o‘zbek millatining o‘ziga xos bo‘lgan milliy xarakterga ega jihatlari ham so‘z qudratidan mohirlik bilan foydalangan holda yoritib berilgan. Shoir tomonidan avlodlarga qolgan adabiy merosida ham milliy xarakter xususiyatlariga xos bo‘lgan jihatlarni kuzatishimiz va o‘zbeklarning o‘ziga yarasha xarakter xususiyatlari mavjud ekanligini bilib olishimiz mumkin bo‘ladi. Milliy xarakterni xalqni belgilaydigan xususiyatlar majmui deb ta’riflash mumkin, buning natijasida turli millat vakillari ajralib turishi mumkin. Milliy xarakter muayyan millat fazilatlarining o‘ziga xos xususiyatlari majmuasidan iborat bo‘ladi. Milliy xarakter o‘z ichiga irodaviy sifatlarni (mustaqillik, chidamlilik, prinsipiiallik, o‘z-o‘zini tuta bilish, o‘ziga buyruq berish, o‘zini qo‘lga olish, qat’iyatlik, matonat kabilarni) va axloqiy xislatlarni (poklik, intizomlilik, samimiylik, haqqoniylik, insonparvarlik va boshqalarni) qamrab oladi. [2] Milliy xarakter ilmiy izlanishlarda bir tomondan, tadqiqot obyekti sifatida biroz murakkab, ammo aslida o‘rganish mumkin bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy hodisadir. Natijalardan shuni bilib olish mumkinki, bugungi kunda shoir ijodi bo‘yicha qilingan ishlar juda ham ko‘p bo‘lib, bu orqali shoirning o‘lmas asarlar muallifi ekanligini yana bir bora his qilish mumkin. Shu bilan birga Muhammad Yusuf tomonidan yaratilgan she’rlar va ularning ayrimlarida keltirilgan o‘zbeklarning milliy xarakter xususiyatlarini yaqqol ochib berilganligini ham guvohi bo‘lishimiz mumkin.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Har bir millatning boshqa millatlardan eng asosiy farq qiluvchi jihatlardan biri bu milliylikdir. Hamma millatning o‘z ona tilisi, urf-odatlarini, an’analari, qadriyatlarini shu milliylik orqali aks etadi. Muhammad Yusuf adabiy merosi hisoblangan saylanmalaridan biriga kirgan “Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor...” she’ri orqali ham o‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy xarakterlaridan biri hisoblangan insonparvarlik vatanga bo‘lgan muhabbat haqida so‘z boradi:

Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig‘latgan dostonlaring bor,
O‘tmishingni o‘ylab og‘riydi jonim,
Ko‘ksing to‘la shahid o‘g‘lonlaring bor.

Bag‘rim o‘rtar bir o‘y bahor ayyomlar,
Oy borgan yoqlarga termulib shomlar.
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,
Fayzullodek mardi-maydonlaring bor... [3]

Barchamizga tarixdan ma‘lumki, mamlakatimiz mustaqil davlat deb e‘lon qilinishidan avval, qancha insonlar shu qatori shoir va yozuvchilar ham mustaqil davlat bo‘lishimiz yo‘lida yaratgan she‘rlari va asarlari bilan o‘sha davr odamlarining ma‘naviyatini dunyoqarashlarini oshirish borasida juda ko‘plab ishlarni amalga oshirganlar. Ammo o‘sha davr nuqtayi nazaridan olib qaralsa bu ishlar osonlikcha amalga oshmaganligini tushinish mumkin. Shu o‘rinda shoir tomonidan yozilgan “Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor...” she‘rida keltirilgan yuqoridagi misralardan ham buning isbotini bilib olishimiz mumkin. Muhammad Yusuf yozganidek, bu she‘rdagi misralar bizni o‘tmishni eslashga va o‘sha vaqtlarda xattoki o‘z ona tilida gapira olmagan, mustaqil yurt farzandi bo‘lishni bir umrga orzu qilib yashab kelgan avlodlar hayoti va mustaqil davlatda yashab hayot kechirish uchun faqatgina o‘qib o‘rganish, dunyoviy ilmlarni egallash shu bilan birga o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan insonlarga vaqtlar kelib mustaqil vatanda yashashi lozimligini bilishimiz mumkin bo‘ladi. Vatan ozodligi yo‘lida qancha o‘g‘lonlarning shahid ketishi ma‘rifatparvar ijodkorlardan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon kabilarning aybsiz aybdorga aylanib qatl etilishi ham o‘sha davrdagi insonlar uchun millat fojiasi bo‘lganligini yaxshi bilamiz. Bugun bizning barchamiz mustaqil yurtimizni doimo qadriga yetishimiz, mamlakatimiz mustaqilligi yo‘lida jonini fido qilgan insonlarni har doim eslab yashashimiz ularning ezgu ishlarini davom ettirishimiz lozim.

Bugun mamlakatimizda inson qadr-qimmatini yuksak darajaga ko‘tarilib garchi ular vafot etgan bo‘lsalarda lekin nomlari tarix zarvaraqlariga muhrlanib qolmoqda. Milliy xarakter xususiyatlaridan biri bo‘lgan samimiylik, kamtarlik shoir Muhammad Yusufning inson sifatidagi eng muhim jihatlardan edi. Shoir samimiylik, kamtarlik bilan ustoz Shavkat Rahmon xotirasiga bag‘ishlab “Lolaqizg‘aldoq” she‘rini yozib qoldirgan edi:

Mendan nima qolar:
Ikki misra she‘r,
Ikki sandiq kitob,
Bir uyum tuproq.
Odamlar ortimdan

Nima desa der,
Men seni o‘ylayman
O‘zimdan ko‘proq –
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq! [4]

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning «Lolaqizg‘aldoq» she‘ri o‘zbekning atoqli shoiri Shavkat Rahmon xotirasiga bag‘ishlangan. She‘rda ham shogirdlik, ham birodarlik, ham insoniylik tuyg‘ulari yuksak pardalarda ifodalangan. [5] Muhammad Yusufning yuqorida tilga olingan she‘ri orqali Shavkat Rahmon va shu kabi vatani uchun yaratgan she‘rlari va asarlari bilan munosib o‘rin va ahamiyatga ega bo‘lgan insonlar ekanligini, ular vafot etgan bo‘lsalarda ammo ularning nomi xalqimiz qalbida mudom saqlanib qolishi kerakligini anglab yetishimizga xizmat qiladi. Har bir insoning u qaysi sohada ishlamasin har birlarining ma‘naviy ustoz bo‘ladi. Ustozlar bergan bilim va ko‘nikmalar orqali o‘z o‘rniga ega bo‘ladilar. Shu o‘rinda Said Ahmad tomonidan el sevgan shoirimiz Muhammad Yusuf haqida aytib o‘tgan ta‘riflarini ham eslab o‘tish lozim. “Muhammad Yusuf tez og‘izga tushdi. Biror shoir uningdek tez nom chiqarmagan, nomdor bo‘lmagan. Ochig‘ini aytsam, Muhammadga ko‘z tegdi. Aslini olganda asl shoirlar uzoq yashamaydilar. Ammo ortdan abadiy yashaydigan meros qoldirib ketadilar. U mana shunday o‘lmas meros qoldirdi. Muhammad she‘r muhlislarining yuragini o‘rtab ketdi. Endi shoirning o‘zi yo‘q. Ammo Muhammad Yusuf deb atalmish she‘riyat bor. Bu she‘riyat aslo zavol bilmaydi”. [6] Ushbu fikrlardan ta‘sir lanib shuni tushunish mumkinki, shoir Muhammad Yusuf she‘rlari asrlar davomida bizdan keyingi avlodlar qalbidan joy olib yashab kelishda davom etadi, yosh avlodlar esa shoir she‘rlaridan ilhomlanib, jamiyatga o‘zlarining olgan bilimlari bilan munosib hissalarini qo‘shadilar. Shoir she‘rlari esa doimo tarixda qolishda davom etaveradi, shoirning shogirdlari esa uning davomchilari sifatida xalqimizning qalbidan joy oluvchi she‘rlarini yozib shoirning ruhini shod etadilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda yoshlarga imkoniyatlar eshigi keng ochilgan biz faqatgina shu imkoniyatlardan tarixda bo‘lib o‘tgan voqaelarni unutmagan holda doimo oldingga qarab harakat qilishimiz zarur. Bu borada O‘zbekiston xalq shoiri marhum Muhammad Yusufdan qolgan adabiy meroslar bizning yanada ma‘naviy jihatdan boyishimizga, mustaqil fikrlash orqali esa jamiyatda shaxs sifatida o‘rin va ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zimiz oqilona qarorlar qabul qilishimizda ham katta manba hisoblanib qolaveradi. Bugun oramizda shoir bo‘lmasada uning milliy xarakter xususiyatiga ega bo‘lgan she‘rlari esa qalbimizda mudom saqlanib, shu she‘rlar orqali hayotga muhabbat tuyg‘usi bilan yashab boraveramiz. Bu esa o‘z navbatida yana bir bora o‘zbek ekanligimizdan faxrlanib yashashimizga, har bir insonga xos bo‘lgan xarakter xususiyatlaridan kelib chiqqan holda vatan, yurt ravnaqiga munosib

hissamizni qo‘shishimizda ham biz avlodlarga ma’naviy meros sifatida xizmat qilishda davom etaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Muhammad_Yusuf
2. В.М. УМАРОВ ПСИХОЛОГИЯ “Voris-nashriyot” 2012, 156-bet
3. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. “ШАРК” НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ 2007, 80-бет
4. Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent: “PHAROS AMBITION” 2022, 312-bet
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/lolaqizgaldoq-shavkat-rahmon-xotirasiga.html>
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/muhammad-yusuf-yaxshi.html>